

## SPORT TURIZMDA TEXNIK VA TAKTIK TUSHUNCHALAR

**Ismoilov Muhammadjasur G'anijon o'g'li**

*Jismoniy madaniyat fakulteti 22.156-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola sport turizmida texnik va taktik tushunchalari deganda poxodlarga tayyorgarlik shartlari, yurish, to'siqlardan o'tish, turistik jihozlardan foydalanish, turistik turmush sharoitlarini bilish, ulardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Tayanch so'zlar:** *texnika sayyoxat, piyoda yurish turizmi, kategoriyalar, meyyorlar, tog'turizmi, jixozlar, nizom, seksiyalar, poxodlar, tashkilotchilar, qoidalar.*

### ТЕХНИЧЕСКИЕ И ТАКТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ В СПОРТИВНОМ ТУРИЗМЕ

**Аннотация:** *В данной статье большое значение имеют технико-тактические концепции спортивного туризма, условия подготовки к походам, пешим прогулкам, преодолению препятствий, использованию туристского снаряжения, знание условий проживания туристов и их широкое использование.*

**Ключевые слова:** *технический туризм, пеший туризм, категории, критерии, горный туризм, снаряжение, регламент, секции, походы, организаторы, правила.*

### TECHNICAL AND TACTICAL CONCEPTS IN SPORTS TOURISM

**Annotation:** *In this article, the technical and tactical concepts of sports tourism, the conditions of preparation for pakhods, walking, crossing obstacles, using tourist equipment, knowledge of tourist living conditions, and their wide use are of great importance.*

**Key words:** *technical tourism, hiking tourism, categories, criteria, mountain tourism, equipment, regulations, sections, pakhods, organizers, rules.*

Turizmning texnik tushunchalari deganda poxodlarga tayyorgarlik shartlari, yurish, to'siqlardan o'tish, turistik jihozlardan foydalanish, turistik turmush sharoitlarini bilish, ulardan keng foydalanish va boshqalarga aytiladi.

Turizmning taktika tushunchasi - deganda kompas, karta, sxema va boshqa asboblarni hamda tabiiy sharot vositalari orqali turistik poxod, slyot sayohatlarda quyiladigan maqsad va vazifalarga erishishi, topshiriqlarni ado etish demakdir.

Turistik tayyorgarlik turizmga o'rgatish jarayonida olib boriladi. Bunda dastlabki amaliy ko'nikmalar hosil qilingach.

Turistlarga poxod, slyot, amaliy mashg'ulotlarda yurish qoidalari, turistik jihozlarni to'plash, oziq-ovqatlarni saqlash, karta va sxemalar bilan ishlash, birinchi tibbiy yordamini ko'rsatish va boshqa talablar o'rgatiladi. Turistik slyot turizmida eng muxim va murakkab jarayon hisoblanadigan musobaqadir. U ko'pchilik jamoat jamoalari (kollektiv komandalari) ishtirokida turistik musobaqa va konkurs formasida o'tkaziladi. Ya'ni komandalar musobaqa nizomiga asosan sportga chamalab topish, to'siqlardan o'tish, «Tez birinchi yordam» ko'rsatish, ovqat pishirish, karta chizish, palatka o'rnatish, estafeta va shunga o'xshash har xil mashqlarni bajaradi. Slyot davomida jamoalar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadilar, erishilgan yutuqlarini namoyish qilinadi. Turistik slyotlar ayniqsa akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'quvchilari bilan tashkil qilinadi.

Sportga chamalab topish turizmning tarkibiy qismi bo'lib, u o'z mazmuni va xarakteriga ko'ra mustaqil sport turi hisoblanadi. Bu sport turida turizmning piyoda yurish, tog' turizm formalari qo'llaniladi. Lekin sport klassifikatsiya normativlariga ko'ra chamalab topish sportida karta, sxema, kompas orqali shartli belgilarni ko'rsatilgan vaqtda topa bilish, topa olish zarur. Bu esa matonat, jasurlik, bilimdonlik, chidamlilik, kollektivizmni rivojlantiradi.

Piyoda yurish turizmi deganda, - sayohatchilarning belgilangan marshrut bo'yicha ( bir kunlik yoki ko'p kunlik) bevosita piyoda yurishi tushuniladi. Bunday paytlarda turistik qoida va shartlar asosida kerakli jihozlar, oziq-ovqatlarni sayohatchilar o'zlari bilan birga olib yurishadi. Piyoda yurish turizmini uyushtirganda yirik sanoat va madaniyat o'choqlari: Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Qarshi, Chirchik, Guliston, Yangiyer, Ohangaron, Jizzax kabi shaharlarning tarixi bilan tanishishni albatta rejalashtirish kerak bo'ladi. Respublika sharoitida piyoda yurish turizmini uyushtirish qoidalari va ularning me'yorlariga albatta rioya qilish lozim.

Turizmning bu turi turistik qoidalarga asosan qiyinchilik kategoriyalari asosida tashkil qilinadi. O'zbekistonning hamma vilotlarida ma'lum darajada turistik jihatdan birinchi kategoriya qiyinchilikdagi tog'lar mavjud. Zarafshon, Turkiston tizma tog'larida, Farg'ona, Toshkent viloyatlari atroflaridagi tog'larda turizmning ikkinchi va uchinchi kategoriya qiyinchilikka to'g'ri keladigan tog'lar hamda davonlar bor. Demak, Farg'ona, Zarafshon, Chirchik vodiysida joylashgan kishilar uchun tog' turizmini keng rivojlantirsa bo'ladi. Tog' turizmi bo'yicha seksiyalar tashkil qilish, turli poxodlar uyushtirish uchun instruktorlar, rahbar kadrlar va havoskar turistlar avvalo, tog' turizmining qoidalarini batafsil o'rganishlari lozim. Mutaxassislardan tegishli maslahatlar olishlari shart. Tog' instruktorlariga guruxni (jamoani) birdaniga baland tog'larga olib chiqish man etiladi. Chunki tog'larda yurishning o'ziga yarasha qonun va qoidalari bor. Ularni izchil o'rganmasdan va tajribada sinamasdan turib poxodlarda yangi natijalarga erishish mumkin emas.

Piyoda va tog' turizmini saralash uyushtirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, turistlar tog' zonalarida yurish tartibini to'la bilishlari, kerakli jihozlarni jamg'arishlari lozim. Tezoqar daryo va ko'llar atrofida tunash, yurish, yashash qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Respublika sharoitida turizmning velosiped, avtomobil, mototsikl, qayiqda sayohat qilish turlari ham mavjud. Hozirgi paytda respublikaning eng chekka va uzoq tumanlarigacha asfal't yo'llar qilinib, ular viloyatlar Respublika markazlarigacha tutashib ketgan. Shuningdek, tog'li zona tumanlarida ham yo'llar mashinalar uchun qulay ravishda moslashtirilgan. Ana shu sharoitlar velosiped, mototsikl, avtomashinalar bilan sayohat qilish imkonini beradi. Navoiy, Samarqand, Bekobod, Farg'ona, Toshkent va boshqa ko'pgina shaharlardagi veloturistlar ancha tajribaga egadir. Ular veloturist kartalari, marshrutlarni tayyorlaganlar. Bir necha bor Samarqand - Toshkent, Bekobod - O'ratepa- Toshkent, Navoiy - Samarand - Termez kabi marshrutlar bo'yicha sayohatlar o'tkazganlar. Samarqand, Navoiy, Toshkent motopoygachilari ham yuqoridagi marshrutlar bo'yicha ko'pgina turistik sayohatlar uyushtirganlar. Toshkent, Yangiyer, Farg'ona turistlari yengil avtomashinalarda faqat respublika shahar va tumanlariga emas, balki qardosh Qirg'izston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, hatto uzoq Yevropa shaharlariga ham turli sayohatlar uyushtirilmoqda.

Qo'pgina maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollej va oliy o'quv yurtlari, hatto ishlab chiqarish korxonalarini, muassasalar, jamoa xo'jaliklar jamoa bo'lib sayohat uyushtiradilar.

Barcha turizm sektsiyalarida sayoxatlarga tayyorlanish arafasida kerakli turistik jixozlar, oziq-ovqat va boshqa yuklarni har bir katnashchiga, ularning jismoniy tayyorgarligiga, jinsiga qarab teng ravishda taksimlash odat tusiga aylanib qolgan.

Uyushtiriladigan bir kunlik (1 bosqich) sayohatida aytarli ortikcha yuk bo'lmaydi. Fakat oziq-ovkat, to'p, badminton, fotoapparat, musika asbobi, shuningdek, agar palatka o'rnatish, gulxan yoqish mo'ljallangan bo'lsa, kerakli jixoz va asboblarni bir necha faol o'quvchilarga topshirish rejalashtiriladi. Birinchi va ikkinchi bosqich sayohatlariga tayyorlanish tartibi bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Agar maktab bo'lsa birinchi bosqichida maktab ma'muriyatining ruhsatini olish va ikki -uch kun avval poxod rejasini tayyorlash kifoya. Poxod marshruti va rejasidagi talablar 6-8 km masofani piyoda o'tish, yo'lda kolleksiya va gerbariylar to'plash, sayr qilish, joylarning qiska tarixi bilan tanishish, poxodda yurish tartibiga rioya qilishdan iboratdir. Ikkinchi bosqichdagi poxodga esa (tunash sharti bilan) ancha vaqt tayyorlanishga to'g'ri keladi.

Buning uchun birinchi navbatda marshrut rejasini tuzish va uni tasdiqlatish, sayoxat davomida suxbat, ma'ruzalar o'tkazish, topografik belgilar bilan izchil tanishish, sxemalar tuzishni o'rganish, turizmning texnik turlari buyicha musobaqalar o'tkazish rejalarni tuzish, o'quvchilarni tibbiy ko'rigidan o'tkazish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Abdumalikov R., Sayohat sahifalari, ommabop kitob, T., "Yosh gvar-diya" 1971 y
2. Abdumalikov R., Turizm, o'quv qo'l, T., "O'qituvchi", 1978 y
3. Abdumalikov R., Xoldarov T, Turizm, o'quv qo'l, T, "O'qituvchi" 1988
4. Abdumalikov R., Xoldarov T, Daurenov E.Yu. Turizm dasturi, T 1997
5. Xusanbayev B.M., Tulaganov L.A., Razina V.G., Dorogami Velikogo shelkovogo puti, T., 1995 y
6. Kolbinsev A.V., V gorax Chimgana, T., "O'zbekiston", 1984 y
7. Rasek V., Puteshestviye po Ferganskoy doline, T., 1978 y
8. Jismoniy tarbiya va sport mavzusidagi Respublika va Xalqaro ilmiy anjumanlarning to'plamlari, 1991-2006 yy.
9. "Fan sportga" ilmiy-nazariy jurnal, №1, 1988 y
10. [www.padagog.uz](http://www.padagog.uz)
11. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
12. [www.ZiyoNET](http://www.ZiyoNET)